

MADANIY MEROS AGENTLIGINING MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISHDAGI O'RNI

Sattorova Sh.O'.

O'zMU Tarix fakulteti O'zbekiston tarixi yo'nalishi

1-kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19214697>

Annotatsiya

Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ning moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishdagi o'rni va faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakat hududida joylashgan tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, me'moriy inshootlar hamda boshqa moddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, ularni ro'yxatga olish, restavratsiya qilish va davlat muhofazasiga olish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, agentlik tomonidan madaniy meros obyektlarini ilmiy o'rganish, ularni saqlash hamda kelajak avlodga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqolada moddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной тезисной работе анализируется роль и деятельность Агентства культурного наследия Республики Узбекистан в области охраны объектов материального культурного наследия. В исследовании освещаются процессы сохранения исторических памятников, археологических объектов, архитектурных сооружений и других объектов материального культурного наследия, расположенных на территории страны, их учёта, реставрации и взятия под государственную охрану. Также рассматриваются меры, осуществляемые агентством по научному изучению объектов культурного наследия, их сохранению и передаче будущим поколениям. Кроме того, в статье отражены вопросы совершенствования системы охраны материального культурного наследия и значение государственной политики в данной сфере.

Kalit so'zlar: moddiy madaniy meros, tarixiy obidalar, muhofaza qilish, restavratsiya, davlat muhofazasi, madaniy meros siyosati.

Ключевые слова: материальное культурное наследие, исторические памятники, охрана, реставрация, государственная охрана, политика культурного наследия

O'zbekiston Respublikasi hududi qadimdan buyuk sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib kelgan. Bu yerda shakllangan boy tarixiy va madaniy meros nafaqat milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash va kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, restavratsiya qilish, ilmiy o'rganish hamda ularni xalqaro miqyosda targ'ib etish ishlarini amalga oshirishda Madaniy meros agentligi muhim rol o'ynaydi. Mazkur agentlik tarixiy obidalarni asrash, muzeylar faoliyatini rivojlantirish, arxeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish hamda madaniy boyliklar harakatini nazorat qilish kabi keng ko'lamli vazifalarni bajaradi.

Madaniy meros agentligi O'zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Agentlik dastlab 2021-yil 19-iyundagi Prezident qarori asosida Turizm va sport vazirligi huzurida tashkil etilgan.

Keyinchalik davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadida 2023-yil 25-yanvardagi Prezident farmoniga muvofiq agentlik alohida mustaqil davlat organi sifatida qayta tashkil etildi. Shuningdek, 2023-yil 1-iyundagi qaror asosida agentlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Mazkur huquqiy hujjatlar moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqdi hamda ushbu sohada davlat nazoratini yanada kuchaytirishga xizmat qildi

Madaniy meros agentligining eng muhim vazifalaridan biri moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish va ularni davlat muhofazasiga olishdan iboratdir. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash va ro'yxatga olish;
- davlat reyestrini yuritish;
- elektron katalog va pasportlarini shakllantirish;
- kadastr tizimini yuritish;
- muhofaza hududlarini belgilash;
- davlat nazoratini amalga oshirish.

Mazkur chora-tadbirlar tarixiy obidalarni noqonuniy buzilishdan himoya qilish hamda ularning asl qiyofasini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shuningdek, agentlik moddiy madaniy meros obyektlaridan oqilona foydalanishni tashkil etadi. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida tarixiy obyektlardan samarali foydalanish mexanizmlari joriy etilmoqda. Bu esa madaniy merosni saqlash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi qaroriga muvofiq mamlakatimizdagi bir qator muzey-qo'riqxonalarining faoliyati takomillashtirildi. Jumladan:

- Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi;
- Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi;
- Xiva "Ichon qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi qayta tashkil etildi.

Shuningdek, quyidagi yangi muzey-qo'riqxonalar tashkil etildi:

- Sarmishsoy davlat muzey-qo'riqxonasi;
- Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi;
- Termiz davlat muzey-qo'riqxonasi;
- Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi.

Natijada mamlakatimizda muzey-qo'riqxonalarining umumiy soni 7 taga yetdi. Bu esa tarixiy hududlarni kompleks tarzda muhofaza qilish imkoniyatini yaratdi.

Mazkur qo'riqxonalarining hududiy chegaralarini belgilash esa ularni huquqiy jihatdan muhofaza qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki ilgari 8210 ta madaniy meros obyektining muhofaza hududlari aniq belgilanmagan edi.

O'zbekiston Respublikasida turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida xalqaro standartlarga mos uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash

jarayonini yo'lga qo'yish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 1-bandining a) kichik bandiga muvofiq «Ipak yo'li» turizm xalqaro universitetini «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti etib qayta nomlangan.

2019-yil 21-avgust kuni Toshkent shahridagi Yoshlar ijod buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar saroyida "O'zbekiston chorrahasi: imperiya, din, madaniyat" mavzusidagi meros haftaligi (22-27-avgust) oldidan matbuot anjumani tashkil etilgan.

22-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrash va targ'ib etish bo'yicha Butunjahon jamiyatining III xalqaro kongressi ish boshlagan. Kongressda O'zbekiston madaniy merosining dunyo to'plamlarida

Tadbirda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish ishlari bo'yicha olib borilayotgan islohotlar haqida so'zlovchi videorolik namoyish etildi,

2021-yil 13-21-sentyabr kunlari Toshkent, Xiva va Nukus shaharlarida Madaniy meros haftaligining bir qator madaniy tadbirlari o'tgan. Haftalik doirasida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining «O'zbekiston madaniy merosi Yangi Renessans poydevori V Kongressi bo'lib o'tgan.

O'zbekiston hukumati qo'llab-quvvatlashi bilan o'tkazilgan V kongress O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati va O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiasiyasi tomonidan tashkillashtirilgan, YUNESKO, Turizm va sport vazirligi, Madaniyat vazirligi, «Eriell Group neft servis kompaniyasi ko'magi bilan o'tkazilgan.

Madaniy meros haftaligi doirasida Xiva shahrida "Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida xalqaro madaniyat forumi, YUNESKO shafeligida "Arxeologiya va turizm: salohiyatni aniqlash va merosni boshqarish" xalqaro anjumani, O'zbekiston fuqarolari va xorijlik mehmonlarni mamlakatimiz san'atining noyob durdonalari bilan tanishtirish maqsadida o'ndan ortiq ko'rgazmalar o'tkazilgan.

Haftalik doirasida o'tkazilgan O'zbekiston madaniy merosini saqlash, o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha Butunjahon assosiasiyasining beshinchi xalqaro konferensiyasida bo'lib, unda AQSh, Germaniya, Italiya, Vengriya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Yaponiya, Albaniya, Avstriya, Afg'oniston, Qozog'iston, Gresiya, Isroil, Hindiston, Iordaniya, Eron, Xitoy, Livan, Mo'g'uliston, BAA, Niderlandiya, Ukraina va Polsha kabi 40 ga yaqin mamlakatdan 300 dan ortiq olim, ekspert va mutaxassis ishtirok etgan Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-aprelda chiqargan 68-son qarori 8-ilovasidagi nizomga ko'ra "Muzeylar haftaligi tadbiri har yili 2-8 sentyabr kunlari o'tkazilishi belgilangan .

"Muzeylar haftaligi tadbiri davomida yetti kun mobaynida keng jamoatchilikni jalb etish uchun ayrim muzeylarga kirish bepul etib belgilangan.

Fuqarolar bir hafta, ya'ni "Muzeylar haftaligi" davomida muzeylarga tashrif buyurib, milliy muzey fondiga kiritilgan ashyolar va kolleksiyalar bilan tanishib, tariximizga oid ma'lumotlar bilan tanishishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularni ilmiy o'rganish, restavratsiya qilish hamda kelajak avlodga yetkazish jarayonida Madaniy meros agentligi muhim davlat organi sifatida samarali faoliyat olib

bormoqda. Agentlik tomonidan tarixiy obidalarni aniqlash, davlat reyestriga kiritish, muhofaza hududlarini belgilash, elektron kataloglarni shakllantirish hamda davlat nazoratini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar milliy madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, muzey-qo'riqxonalarining qayta tashkil etilishi, yangi qo'riqxonalarining barpo etilishi, xalqaro kongress va meros haftaliklarining o'tkazilishi hamda ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ushbu sohada davlat siyosatining izchil va tizimli olib borilayotganini ko'rsatadi. Bu chora-tadbirlar nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki uni xalqaro miqyosda targ'ib etish, turizm salohiyatini oshirish va milliy o'zlikni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi "Muzey-qo'riqxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi Madaniy meros agentligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga oid farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi Madaniy meros agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risidagi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
7. Yarkulov, Alisher. Arxeologiya me'rosi obyektlarini muzeylashtirish. – T.:Renessans press,2023. – 316 b.